



RUSSIA IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY - EARLY 20TH CENTURY: CHANGES IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

Azizbek Kholliiev

*Doctor of historical sciences, professor
National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Russia, foreign economic activity, management system, transformations, state institutions, restructuring, special departmental structures, Ministry of Finance, Department of Trade and Manufactures, institutional renewal.

Received: 16.09.25

Accepted: 17.09.25

Published: 18.09.25

Abstract: The article presented provides a detailed analysis of the changes that occurred in Russia's foreign economic activity management system during the historical period spanning the second half of the 19th century to the early 20th century. The primary focus is on examining the characteristics of financial and economic policies related to foreign relations, the reorganization of state institutions pertinent to the field of study, as well as identifying the interconnections between the most significant events in the historical process.

ROSSIYA XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHIDA: TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Azizbek Kholliyev

*Tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekistan*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya, tashqi iqtisodiy faoliyat, boshqarish tizimi, o'zgarishlar, davlat institutlarini, qayta tuzish, maxsus idoraviy tuzilmalar, Moliya vazirligi, Savdo va manufakturalar departamenti, institutsional yangilash.

Annotatsiya: Taqdim etilgan maqolada XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshining tarixiy sharoitlarida Rossiyaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish tizimida ro'y bergan o'zgarishlar atroflicha tahlil qilingan. Asosiy e'tibor tashqi aloqalar bilan bog'liq moliyaviy-iqtisodiy siyosatning xususiyatlarini o'rganish, tadqiq qilingan sohaga oid davlat institutlarini qayta tuzish va tarixiy jarayonidagi eng muhim voqealarning o'zaro aloqasini aniqlashga qaratildi.

РОССИЯ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА: ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Азизбек Холлиев

Доктор исторических наук, профессор

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Россия, внешнеэкономическая деятельность, система управления, государственные институты, реструктуризация, ведомственные структуры, Министерство финансов, Департамент торговли и мануфактур, институциональное обновление.	Аннотация: В представленной статье подробно анализируются изменения, произошедшие в системе управления внешнеэкономической деятельностью России в исторических условиях второй половины XIX - начала XX века. Основное внимание уделено изучению особенностей финансово-экономической политики, связанной с внешними отношениями, реорганизации государственных институтов, относящихся к исследуемой области, а также выявлению взаимосвязи важнейших событий в историческом процессе.
------------------------	---	--

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Rossiya keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro aloqalarni kengaytirish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish mexanizmlarini isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

1861-yilgi islohotdan so‘ng Rossiya shiddatli iqtisodiy rivojlanish davriga kirdi. Tashqi iqtisodiy faoliyat resurslarni safarbar etishda hal qiluvchi rol o‘ynay boshladi. Hukumat bojxona tariflari tizimi va davlat institutlari orqali tartibga solishni kuchaytirdi.

Asosiy qadamlar quyidagilardan iborat edi: 1857-1868 yillardagi boj islohoti, Moliya vazirligi huzurida maxsus idoraviy tuzilmalarning tashkil etilishi, shartnomaviy bazaning rivojlantirilishi.

Ushbu davrda Rossiya jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashishga intildi. Bu jarayon boshqaruv tizimidagi institutsional o‘zgarishlar bilan birga kechdi. Ko‘rib chiqilayotgan davrda Moliya vazirligining roli kuchaydi, Davlat bankining vakolatlari kengaydi, eksport-import operatsiyalarini tartibga solish uchun maxsus qo‘mitalar va komissiyalar tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. Davlat idoralarini qayta tashkil qilish tahlili, odatda, me‘yoriy-huquqiy bazadagi o‘zgarishlarga qaratilgan bo‘lib, davlat va huquq tarixi doirasida ko‘rib chiqiladi. Moliyaviy-iqtisodiy siyosatning xususiyatlarini o‘rganish davlat moliya institutlarini qayta tuzish va Rossiya tarixiy jarayonidagi eng muhim voqealarning o‘zaro aloqasini aniqlamasdan iloji yo‘q.

Bu ma'lum bir davrda iqtisodiy sohada ro'y bergan hodisalarni to'liqroq tasavvur qilish va tushunish imkonini beradi. Ayniqsa muhim institutsional o'zgarishlar islohotdan keyingi Rossiyada yuz berdi [5, b.66].

Tashqi savdo departamenti deyarli o'zgarmagan holda 53 yil davomida mavjud bo'ldi. Faqat 1864-yil 26-oktyabrda imperator farmoni bilan barcha savdo masalalarini Moliya vazirligining bir departamentida jamlash to'g'risidagi Davlat kengashi mulohazasi tasdiqlandi [3, b.73]. Shu munosabat bilan Tashqi savdo departamentidan Manufakturalar va ichki savdo departamentiga Tashqi savdo aloqalari bo'limi o'tkazildi. Xuddi shu farmon bilan Tashqi savdo departamenti nomi Bojxona yig'implari departamenti deb o'zgartirildi, Manufakturalar va ichki savdo departamenti esa Savdo va manufakturalar departamenti deb nomlandi [9, b.4-5].

Eng muhim iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruv tizimini institutsional yangilashning xususiyati shundan iborat ediki, u krepostnoylikni tugatish loyihalarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda boshlandi va 1880 yy. boshlarigacha, ya'ni islohotlarning butun davri davomida, sodir bo'ldi. O'zgarishlar bir vaqtning o'zida savdo-iqtisodiy va moliyaviy boshqaruvning aksariyat tuzilmalariga taalluqli edi.

Moliya vazirligi tuzilmalari jiddiy tarzda yangilandi. Savdo va manufakturalar departamentining ekspertlik vazifalariga ega hamda savdo-sanoat qatlamlari manfaatlarini ifodalovchi Manufakturalar va Tijorat kengashlari sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Bu vaqtda Manufakturalar kengashining Moskva bo'limi o'zini juda faollashtirdi, birja qo'mitalari paydo bo'ldi va muvaffaqiyatli ish olib bordi. Aynan ular 1872-yilda, birlashish natijasida, Moliya vazirligining Savdo va manufakturalar kengashini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qildi [9, b.4-5]. Savdo va manufakturalar kengashi faoliyatining maqsadi - Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, statistik materiallarni to'plash va tahlil qilish, sanoat ko'rgazmalarini tashkil etish, sanoatni zamonaviy mashina va uskunalar bilan ta'minlash edi.

XIX asr 80-yillar - 90-yillarning boshida Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimida Moliya vazirligining ta'siri kuchaydi. Ushbu davrning asosiy mazmuni vazirlik funksiyalarini jiddiy kengayishi, uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi, iqtisodiyotning umumiy yuksalishi, mamlakat byudjet xo'jaligining kengayishi, yangi kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va sanoat modernizatsiyasining boshlanishi bilan bog'liq edi. Bu yillarda, agrar sohani hisobga olmaganda, podsho hukumati olib borgan butun iqtisodiy siyosatning o'tkazuvchisi moliya vaziri edi [10, b.22,23].

Ammo Moliya vazirligining keyingi rivojlanishiga va ta'sirining oshib borishiga Ichki ishlar vazirligining kuchli qarshiligi, vazirlik eski tashkiliy tuzilmasining yangi vazifalarga mos kelmasligi, savdo va sanoat boshqarmasining Moliya vazirligidan ajralib chiqish tahdidi to'sqinlik qildi.

S.Yu.Vitte (1892-1903 yy.) vazirligi davri idoraning ravnaq topish davri, Moliya vazirligining davlat apparati barcha qismlariga, rus jamiyatida sodir bo'lgan jarayonlarga ustivor ta'siri bosqichiga aylandi.

Vazirlik, mohiyatan, bir qancha vazirliklarning yig'indisiga, ya'ni bir necha kuyidagi potensial mustaqil ma'muriy qismlarni o'z ichiga olgan ma'muriy tuzilmaga aylandi: bevosita moliya va soliqlarni idora qilish, savdo va sanoatni boshqarish, bojxona boshqaruvi, shuningdek boshqa vazirliklar vakolatiga kiradigan alohida qismlar [10, b.25].

Vazirlikni tashkillashtirishda shaxsiy omil hali ham deyarli ustunlik qildi, bu ayniqsa 1900-yil islohotida sezilarli bo'lib qoldiki, uning natijasida sanoat va savdoni boshqarish Moliya vazirligining markaziy muassasalari deb nomlangan maxsus bo'limlarda to'plandi.

Jumladan, Moliya vazirligining markaziy apparati tarkibiga yangi tashkil etilgan Sanoat bo'limi, Savdo bo'limi, O'quv bo'limi va Dengiz savdo kemalari qatnovi bo'limi kiritildi. Ayni vaqtda, savdo va sanoat ishlarini idora qiluvchi moliya vaziri o'rtog'i (o'rinbosari) huzurida devon tuzildi [2, b.166].

XIX asr 80-yillar oxiri - 90-yillar boshida Rossiya Yevropa fond bozorlarida moliyaviy operatsiyalarini keskin kuchaytirdi va har yili u yerda tashqi zayomlarni joylashtirdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning bunday kuchayishi munosabati bilan 1880-yillar oxirida Moliya vazirligining kredit masalalari bo'yicha Maxsus kanselyariyaning (devonning) Xorijiy bo'limi tuzilib, u zayomlarni chiqarish uchun materiallar tayyorlay boshladi. Ushbu bo'limda xalqaro pul bozoridagi vaziyat, moliyaviy va siyosiy matbuot kuzatib borildi [1, b.11].

S.Yu.Vitte tufayli Savdo va sanoat vazirligini yaratish yana besh yilga qoldirildi va faqat u iste'foga chiqqanidan keyin amalga oshirildi. XX asr boshida vazirlikning tashkiliy tuzilmasi modernizatsiya qilinayotgan jamiyat talablariga tobora kamroq mos kelardi.

1905-yil 27-oktyabrda farmon bilan Savdo va sanoat vazirligi tashkil etildi. Moliya vazirligidan uning tarkibiga quyidagilar o'tkazildi: savdo-sanoat va tog'-kon sanoati ishlari bo'yicha muassasalar, tarif masalalari bo'yicha kengash, tarif qo'mitasi va temir yo'l ishlari departamenti (g'aznachilikning temir yo'l jamiyatlari bilan moliyaviy hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi boshqarmalar bundan mustasno).

Yangi vazirlik tarkibiga Dengiz savdo kemalari qatnovi va portlar bosh boshqarmasi ham kirdi. Savdogarlar jamiyatlari, savdogarlar va hunarmandlar mahkamalari bilan bog'liq barcha ishlar Ichki ishlar vazirligidan yangi vazirlikka o'tkazildi.

Keyinchalik (29.03.1906 y.) Tarif masalalari bo'yicha kengash, Tarif qo'mitasi va Temir yo'l boshqarmasi Moliya vazirligiga qaytarildi. Sanoat va savdoni boshqarishga oid yangi qonunlar loyihalarini muhokama qilish Savdo va sanoat vazirining umumiy idoraviy kengashiga topshirildi [2, b.168,170].

1900-yilning 6-mayida Moliya vazirligi tarkibida, 1905-yil 27- sentyabrdan esa Savdo va sanoat vazirligi tarkibida faoliyat yuritgan Savdo bo‘limi ichki va tashqi savdoni boshqarish hamda nazorat qilish bo‘yicha davlat organiga aylandi. Bo‘limga ichki savdo masalalari: yarmarkalar, birjalar, savdogarlar tabaqasining huquqlari, savdo shirkatlari va aksiyadorlik jamiyatlari, o‘lchov va tarozilar, davlat kasbkorlik solig‘i, savdo va hunarlarlardan olinadigan yig‘imlar; tashqi savdo aloqalari bo‘yicha ishlar yuklatidi.

Bo‘lim tarkibida Tashqi savdo bo‘linmasi ish olib bordi, va uning vakolatiga tashqi savdoning umumiy masalalari, konsulliklar, Savdo va sanoat vazirligining xorijdagi agentlari, konsulliklar va agentlar uchun umumiy dasturlar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish, agentlar va konsullar materiallarini chop etish; Rossiyaning chet eldagi palatalari va Rossiyadagi xorijiy palatalar, eksport-import jamiyatlari va birlashmalari; eksportni rivojlantirish va rag‘batlantirish chora-tadbirlari kirdi.

Tashqi savdo bo‘yicha Ma‘lumotnoma bo‘limiga tashqi va ichki savdo bozorlari to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni jamlash va tizimlashtirish hamda ulardan barcha manfaatdor shaxslar va muassasalarni xabardor qilish yuklatildi [2, b.179].

1917 yilda Muvaqqat hukumat Savdo va sanoat vazirligi tarkibida qaytadan tuzilgan Ichki savdo bo‘limi va Tashqi savdo bo‘limiga ishlarni o‘tkazish bilan Savdo bo‘limini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Ta‘kidlash joizki, Savdo va sanoat vazirligi tuzilmasida Rossiya eksport palatasi nomli boshqaruv muassasa bor edi. Ushbu palata faoliyatining asosiy maqsadi Rossiya eksportini rivojlantirishga ko‘maklashish va tegishli masalalarni ishlash edi [4, b.1314; 6, v.1].

Quyidagilar palata tassarrufida edi: eksport masalasini batafsil o‘rganish; rus eksportini rivojlantirish va uni tashkil etishni takomillashtirishda jismoniy shaxslar va muassasalarga yordam berish; eksport ehtiyojlari uchun iltimosnomalar bilan chiqish; davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek, jismoniy shaxslar tashabbusi bilan eksportga oid masalalar yuzasidan xulosalarni taqdim etish; rus eksportiga oid statistik va boshqa ma‘lumotlarni to‘plash, ishlab chiqish va tarqatish; qurultoylar, savdo-sanoat muzeylari va eksport savdosi bo‘yicha Rossiyada va xorijda ko‘rgazmalar tashkil qilish, shuningdek, xalqaro ko‘rgazmalarda rus bo‘limlari; ko‘rgazmalar xalqaro assotsiatsiyasida ishtirok etish; eksport savdosi masalalari muhokamasida qatnashish; rus tovarlarini standartlashtirish masalalari ustida ishlash, xalqaro arbitraj masalalari.

Palata qoshida Axborot byurosi mavjud bo‘lib, “Rus eksporti” jurnali nashr etilardi [2, b.184].

Rossiya eksport palatasi nizomi 1910 yil oxirida imperator Nikolay II tomonidan tasdiqlandi. 1909 yilda nizom loyihasining muhokamasi birja qo‘mitalari tomonidan turli munosabatlarni keltirib chiqardi. Nikolaev, Riga va Revel qo‘mitalari uning yaratilishiga qarshi bo‘ldi, chunki

ularning fikricha, mavjud tashkilotlar Rossiya eksport savdosini tartibga solish va osonlashtirish vazifasini yaxshi ado etardi, Sankt-Peterburg, Berdyansk va Astraxan birja qo'mitalari esa loyihalashtirilayotgan palatani yoqlab chiqdilar [11, b.102].

Rossiya eksport palatasi tezda o'zini ko'rsatdi. Garchi uning yillik xarajatlari, faoliyatning birinchi yilidagi hisobotga ko'ra, atigi 12,7 ming rub. tashkil etsada, u g'alla va yog'och eksportini o'z ichiga olgan yettita asosiy shu'balarda ishlagan 800 yaqin a'zolari birlashtirdi [8, v.86,198].

Rossiya eksport palatasi birja qo'mitalari gegemonligini buzishga muvaffaq bo'ldi. Rossiya eksport palatasi o'ziga birja qo'mitalari nomidan chiqish va harakat qilish huquqini egallab olgan degan shikoyatlar paydo bo'ldi, garchi so'nggi olti yil ichida birja savdosi va qishloq xo'jaligi vakillari Qurultoylari kengashi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bo'lsa-da [7, v.161,168].

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Rossiya tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimini o'zgartirish bosqichini bosib o'tdi. Bu tizim proteksionizm va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv intilishlarini o'zida mujassam etgandi. Ixtisoslashtirilgan muassasalarning tashkil etilishi, bojxona tizimining isloh qilinishi va shartnomaviy munosabatlarning rivojlanishi xalqaro aloqalarni kengaytirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баев О.В. Европейские рынки капиталов и трансформация внешнего долга Российской империи в конце 80-х – начале 90-х гг. XIX в. // Вестник КемГУ, №2 (54), 2013.
2. Высшие и центральные государственные учреждения России. 1801-1917. Т.2. – Санкт-Петербург: Наука, 2001.
3. ПСЗРИ II. №41374 – О сосредоточении в одном Департаменте Министерства Финансов дел, относящихся до торговли. Т.XXXIX, Отделение II. – Санкт-Петербург: Типография II Отделения Собственной Его Императорского Величества Канцелярии, 1867.
4. ПСЗРИ III. №34581 – Высочайше утвержденное Положение о Российской Экспортной палате. Т.XXX. Отделение I. – Санкт-Петербург: Государственная типография. 1913.
5. Разманова Н.А. Институциональные преобразования системы управления финансами в пореформенной России // Гуманитарные науки. №3,2011. –С.66.
6. RDTA. 122-fond, 1-ro'yxat, 276-ish, 1-varaq.
7. RDTA. 23-fond, 9-ro'yxat, 121-ish, 161,168-varaqlar.
8. RDTA. 23-fond, 9-ro'yxat, 121-ish, 86,198-varaqlar.

9. Систематический каталог делам Департамента внешней торговли, хранящимся в Архиве Департамента таможенных сборов / Сост. нач. Арх. Деп. тамож. сборов Н. Кайданов. – Санкт-Петербург: тип. В. Киршбаума, 1877.

10. Соловьев Я.В. Министерство финансов Российской империи в 1858 - 1903 гг.: организация и функционирование. / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. –Москва, 2003.

11. Томпстон С.Р. Российская внешняя торговля XIX - начала XX в.: организация и финансирование / пер. с англ. Ю.А. Петрова. –Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). 2008.